

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636277>

## SOMONIYLAR DAVLATINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

**Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

**Dustmirzayeva Flyura Shuxrat qizi**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yurtimiz tarixida ajralmas sahifa sifatida e’tirof etilgan Samoniylar davri, bu davrda o‘lkada tinchlik siyosati, ilm-fan, madaniyat xususida fikr yuritilgan. Har bir xalqning davlatchilik va madaniyati tarixini o‘rganish nafaqat ilmiy yoki nazariy, balki chuqur ma’naviy-ruhiy ahamiyatga ega bo‘lib, har birimizda o‘zimiz tug‘ilgan va yashayotgan ona vatanimiz bilan aloqadorlik hissinini rivojlantiradi. Somoniylar davriga oid manbalar ichida Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning (899-959) “Buxoro tarixi” (944), Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” yoki “Osor ul-boqiya” (1000) asarlari o‘sha davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi.

**Kalit so‘zlar:** Harbiy faoliyat, davlat, boshqaruv, iqtisod, adolat, diplomatiya, siyosat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается эпоха Саманидов, признанная неотъемлемой страницей в истории нашей страны, период мирной политики, науки, культуры в стране. Изучение истории государственности и культуры каждого народа имеет не только научное или теоретическое, но и глубокое духовно-духовное значение, развивая в каждом из нас чувство связи с родной страной, в которой мы родились и живем. Среди источников, относящихся к эпохе Саманидов, “история Бухары” Абу Бакра Мухаммада ибн Джафара Наршахи (899-959) (944), Особое место в изучении политической, социально-экономической и культурной истории того времени занимают труды Абу Райхана Беруни (973-1048) “памятники древних народов “или” осор уль-Бакия” (1000).

**Ключевые слова:** военная деятельность, государство, управление, экономика, правосудие, дипломатия, политика.

**Annotation:** *in this article, The Samonian period, which is recognized as an integral page in the history of our country, is reflected on the policy of peace in the country, science, culture. The study of the history of statehood and culture of each people is not only scientific or theoretical, but also of deep spiritual and spiritual significance, developing in each of us a sense of connection with the motherland in which we were born and live. Sources dating back to the somonian period include Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshahi's (899-959) "history of Bukhara" (944, Abu Rayhon Beruni's (973-1048) "relics from ancient peoples" or "Osor ul-boqiya" (1000) has a special place in the study of the political, socio-economic and cultural history of the time.*

**Keywords:** *military activity, state, management, economy, Justice, diplomacy, politics.*

Somoniylarning oilaviy nisbasi, ya'ni nomi ularning ajdodi bo'lmish Somonxudot ismi bilan bog'liq. Somonxudotning kelib chiqishi hakida turli xil ma'lumot va fikrlar mavjud. Abu Bakr Narshaxiy (X asr) va Hamza Isfahoniy (X asr) keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, Somonxudot Balx viloyatidagi Somon qishlog'idan, alMukaddasiy (X asr) ning ma'lumotiga ko'ra esa, u Samarqand viloyatidagi Somon nomli qishloqdan bo'lgan. "Sa'diya" nomli asar (XVII asr) da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uning asl ismi Arquq bo'lib, u Farg'onadan Termizga ko'chib kelgan va u yerda Somon nomli qishlog'iga asos solgan. O'rta asrlarda Buxoro, Farg'ona, Tohariston, Xuttalon va boshqa viloyatlarda ham Somon nomli qishloqlar bo'lganligi qayd etilgan. Bu ma'lumotlar "Somon" toponimi o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududlarida va undan tashqari yerlarda ham keng tarqalgan joy nomi bo'lganligidan dalolat beradi.

Sh.Kamoliddinning fikricha, "Somoniylarning boshqaruv tizimi o'sha davrning barcha aniq va mukammal tizimlarini o'zida birlashtirgan. Biroq davlatchilik huquqiy atama bo'lgani bois uning sifati ham huquqiy normalarga asoslangan bo'lishi kerak. Qonunchilik nuqtai nazaridan, bizningcha, Somoniylarning boshqaruv tizimi va boshqaruvi ham mustaqil davlat sifatida ko'rilishi mumkin emas. O'rta asr islom jamiyatida birinchi o'rinda doim din, so'ng davlat va keyin madaniyat turgan. Islomda davlat asosini Qur'oni karim, hadisi sharif va ulamolarning fatvolariga asoslangan

shariat qonunlari tashkil etadi. Din va hukumat islomda ajralmas hisoblanadi. Xalifalikka qarashli viloyatlarni boshqaruvchi mahalliy sulolalardan chiqqan barcha amirlar, xususan, Somoniylar ham rasman mustaqil bo'lsalar-da, baribir, Bag'dod xalifalarining oliy hokimiyatini tan olishgan. Qonun bo'yicha huquqiy normalar shariat tomonidan belgilangan. Shuning uchun Buvayhiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va Qoraxoniylar hukmdorlar o'zlarini "maulo amirul mo'minin" yoki "voliy amir al-mo'minin" deb vasf etishgan" [3:139].

Ik islom davrida arablar Markaziy Osiyodagi katta-kichik shahar va viloyatlarning mahalliy hukmdorlarini ham "dehqon" deb ataganlar. Ularning ba'zilar ancha qudratli bo'lib, hatto podshohni ham mehmonga chaqirishlari mumkin bo'lgan. Somoniylar davrida dehqonlarning mavqei va maqomi biroz pasaygan bo'lsa ham, ular hamon Markaziy Osiyoning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rinda bo'lib qolavergan[1:148].

Somoniylar markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida Markaziy Osiyodagi dehqonlar, ya'ni katta yer egalari qarshi qattiq siyosat olib borib, hatto ularning ko'shk va qal'alarini buzdirib tashlashgan. Natijada somoniylarga qarshi viloyatlar aholisi tomonidan tez-tez qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Somoniylar hukmronligi davrida dehqon instituti halokatga uchragan bo'lsa-da, lekin, baribir, dehqonlarning siyosiy va iqtisodiy hayotdagi roli hali anchagina sezilarli edi.

Somoniylar sulolasi arab bo'lmagan birinchi musulmon sulolasi bo'lib, yuz yildan oshiq hukmronlik qilgan va hokimiyat otadan bolaga meros qoldirilgan. Somoniylar islom dinining yoyilishida ham faol ishtirok etganlar. Mazkur sulola hukmronligi davrida (IX-X asrlar) islom dini Sirdaryo sohillariga va uning shimolidagi viloyatlar– Yettisuv va Sharqiy Turkistongacha tarqaladi. IX asrning birinchi yarmida Toshkent vohasi aholisi ham islom dinini qabul qiladi[2:272].

– Somoniylar Movarounnahrda ilk mahalliy musulmon sulola bo'lib, tashqi siyosatda xalifaga bo'ysungan holda ichki boshqaruvda to'liq mustaqil bo'lgan. Somoniylar hukmdorlarning o'z nomlaridan tanga zarb qildirgani hamda juma xutbasida xalifaning nomidan keyin o'zlarini zikr ettirgani buning isbotlaridir.

– Somoniylar va ulardan keyingi mustaqil turk-musulmon sulolalari uzoq davr tarqoq holda rivojlangan Markaziy Osiyo mintaqasini markazlashgan yaxlit davlatga aylantirdi. Movarounnahrda markazlashgan boshqaruvning qaror topishi natijasida ichki nizolar qirqilib, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik, bog‘dorchilik rivojlandi, turmush farovonligi oshdi.

– Eng yirik ikki turkiy qabila – qarluqlar va o‘g‘uzlar somoniylar sa‘y-harakatlari evaziga islomni qabul qildi; Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Usmoniylar, Tuluniylar kabi islom ta‘limotidan oziqlangan kuchli boshqaruvga ega markazlashgan musulmon davlatlariga asos solishdi, shuningdek, keyingi davrlar davlat boshqaruvi uchun andoza sifatida xizmat qildi.

Somoniylarning harbiy yurishlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlari borgan sari avj olib bordi. Oqibatda mamlakatda iqtisodiy tanglik sodir bo‘ldi. Hatto harbiylar, shu jumladan, amirning muntazam turk sarbozlari qo‘shiniga maosh to‘lash uchun mablag‘ topilmaydi. Bunday og‘ir ahvoldan chiqish uchun 942-yilda aholidan ikki marta soliq undirib olinadi. Behad tartibsizlik mamlakatda vaziyatni yanada keskinlashtirib, aholi turli tabaqalarining hokimiyatga qarshi qo‘zg‘alishiga sabab bo‘ladi. Siyosiy vaziyat Nuh (943-954) va uning nabirasi Nuh II (976-997) hukmronlik qilgan davrda nihoyatda keskin tus oladi. 947-yilda Nuh ibn Nasrning amakisi Ibrohim isyon ko‘taradi. Saroy sarbozlari va Chag‘oniyonning yirik yer-mulk egasi Abu Ali Chag‘oniy yordamida Ibrohim Buxoro taxtini egallab oladi. Ko‘p vaqt o‘tmay Abu Ali Chag‘oniyning o‘zi ham hukmdorga qarshi isyon ko‘taradi. Nuh qo‘zg‘olonni kuch bilan bostira olmaydi. 952-yilda Abu Ali Chag‘oniy u avval Chag‘oniyonga, so‘ngra Xurosonga hokim qilib tayinlashga majbur bo‘ladi. 961-yilda Buxoro harbiy askarlarining g‘alayoni ko‘tariladi. Qo‘zg‘olonchilar amir saroyini talaydilar va unga o‘t qo‘yib yuboradilar. Bunday voqealarning tez-tez qay tarilib turishi, shubhasiz, markaziy hokimiyatning zaiflashib qolganidan dalolat berardi. 992-yilda Horun Bug‘roxon boshliq qoraxoniylar Movarounnahrda hujum boshlaydilar. Bu davrda somoniylar sulolasi chuqur ichki ziddiyatlar girdobiga tushib qolgan edi. Qoraxoniylar Buxoroni qarshiliksiz ishg‘ol

qiladilar. Nuh ibn Mansur qoraxoniylarga qarshi kurashish uchun G'aznadagi noibi Sobuqteginni yordamga chaqiradi. U yigirma ming kishilik qo'shin bilan Movarounnahrğa yetib keladi. Nuh bilan birlashib, bir necha janglardan so'ng qoraxoniylar noibi qo'shinlari tor-mor qilinadi. Buning evaziga Nuh Sobuqteginni Xurosonning noibi etib tayinlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Somoniylar davlatining tashkil topishi IX asrning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda muhim o'zgarishlar paydo bo'lishiga turtki berdi. Bu davr ilm-fan va ma'rifatning rivojlangan davri bo'ldi hamda Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshband kabi ulug' mutafakkir olimlar va allomalr yetishib chiqishida muhim bosqich bo'ldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abul Abbas Ahmad ibn Yahyo al-Balozuriy. Futuh al-buldon. Xurosonning fath etilishi / So'z boshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko'rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – T.: ToshDSHI, 2017. – B.439.
2. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: Sharq, 2001. – B.462.
3. O'zbekiston xalqlari tarixi. I jild. Mualliflar jamoasi / Mas'ul muharrir. A.Asqarov. – T.: Fan, 1992. – B.188.
4. A.S.Sag'dullayev-O'zbekiston tarixi Birinchi kitob, Toshkent, "Donishmand ziyosi", 2021.
5. Karim Shoniyozov "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". T, "Sharq", 2001.
6. Berdiyeva, S. (2024). IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR CREATIVE ACTIVITY BASED ON FOREIGN EXPERIENCES. Talqin va tadqiqotlar, (28).